



**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



*2024-yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74**



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 137 205,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 34 343,5 ming AQSH dollariga yoki 33,4 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **137 205,5** +33,4 %

(2023-y.: **102 862,0**)



Saldo

2024-y.: **8 898,9** (2023-y.: **16 403,4**)




Eksport

2024-y.: **73 052,2** +22,5 %

(2023-y.: **59 632,7**)

TSA'dagi ulushi, % da



53,2



Import

2024-y.: **64 153,3** +48,4 %

(2023-y.: **43 229,3**)













46,8

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 73 052,2 ming AQSH dollariga (22,5 % ga ko‘paydi) va import hajmi 64 153,3 ming AQSH dollariga (48,4 % ko‘paydi). Hisobot davrida 8 898,9 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-aprel, ming AQSH dollari)










<p>Turkiya</p> <p>TSA – 30 903,4</p> <p>Eksport: 5 166,3 Import: 25 737,1</p> <p> 22,5 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 26 457,7</p> <p>Eksport: 21 615,0 Import: 4 842,7</p> <p> 19,3 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 22 991,5</p> <p>Eksport: 22 147,2 Import: 844,3</p> <p> 16,8 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 17 717,6</p> <p>Eksport: 12 356,9 Import: 5 360,7</p> <p> 12,9 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 11 224,5</p> <p>Eksport: 173,9 Import: 11 050,6</p> <p> 8,2 %</p>
<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 8 145,1</p> <p>Eksport: 6 973,8 Import: 1 171,3</p> <p> 5,9 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 5 078,9</p> <p>Eksport: 864,1 Import: 4 214,8</p> <p> 3,7 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 2 531,8</p> <p>Eksport: 162,4 Import: 2 369,4</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 2 446,2</p> <p>Eksport: 112,1 Import: 2 334,0</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 1 575,4</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 1 575,4</p> <p> 1,1 %</p>

Surxondaryo viloyati jahonning 47 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (22,5 %), Pokistonda (19,3 %), Rossiyada (16,8 %), XXRda (12,9 %), Germaniyada (1,6 %), Afg‘onistonda (5,9 %), Qozog‘istonda (3,7 %), Eron (1,8 %), Hindistonda (1,8 %), va Turkmaniston (1,1 %) qayd etilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Turkiya	10 495,2	7 246,3	30 903,4
	<i>Eksport</i>	6 923,5	3 059,1	5 166,3
	<i>Import</i>	3 571,8	4 187,1	25 737,1
	Pokiston	26 102,7	31 101,8	26 457,7
	<i>Eksport</i>	10 190,6	19 739,8	21 615,0
	<i>Import</i>	15 912,1	11 362,0	4 842,7
	Rossiya	30 589,5	8 154,6	22 991,5
	<i>Eksport</i>	8 985,9	5 872,3	22 147,2
	<i>Import</i>	21 603,6	2 282,3	844,3
	XXR	42 828,0	23 762,3	17 717,6
	<i>Eksport</i>	27 693,0	16 219,9	12 356,9
	<i>Import</i>	15 134,9	7 542,4	5 360,7
	Germaniya	1 326,5	1 380,8	11 224,5
	<i>Eksport</i>	659,8	222,2	173,9
	<i>Import</i>	666,7	1 158,6	11 050,6
	Afg'oniston	8 318,3	5 481,7	8 145,1
	<i>Eksport</i>	8 015,5	5 228,3	6 973,8
	<i>Import</i>	302,9	253,4	1 171,3
	Qozog'iston	13 368,8	7 300,4	5 078,9
	<i>Eksport</i>	8 023,4	2 316,0	864,1
	<i>Import</i>	5 345,4	4 984,4	4 214,8
	Eron	2 530,4	1 455,1	2 531,8
	<i>Eksport</i>	1 778,1	1 108,6	162,4
	<i>Import</i>	752,4	346,5	2 369,4
	Hindiston	1 312,3	1 878,4	2 446,2
	<i>Eksport</i>	208,4	949,1	112,1
	<i>Import</i>	1 103,9	929,4	2 334,0
	Turkmaniston	591,2	453,5	1 575,4
	<i>Eksport</i>	241,3	129,3	-
	<i>Import</i>	349,9	324,2	1 575,4

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Belarus	923,4	548,0	876,0
	<i>Eksport</i>	758,7	264,2	875,9
	<i>Import</i>	164,7	283,8	0,03
	Ekvador	428,2	25,8	841,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	428,2	25,8	841,1
	Polsha	146,8	674,1	723,9
	<i>Eksport</i>	60,9	503,8	310,7
	<i>Import</i>	85,9	170,3	413,1
	Tojikiston	3412,1	4338,6	709,7
	<i>Eksport</i>	1151,6	1493,8	455,5
	<i>Import</i>	2260,5	2844,9	254,2
	Avstriya	580,4	0,03	577,2
	<i>Eksport</i>	-	0,03	0,1
	<i>Import</i>	580,4	-	577,1
	Qirg'iz Respublikasi	1763,7	657,3	541,7
	<i>Eksport</i>	1103,9	633,4	85,2
	<i>Import</i>	659,8	23,9	456,5
	Ozarbajjon	545,5	467,9	466,3
	<i>Eksport</i>	545,5	467,9	466,3
	<i>Import</i>	-	-	-
	Chexiya	267,5	305,0	400,0
	<i>Eksport</i>	-	119,3	-
	<i>Import</i>	267,5	185,7	400,0
	Latviya	0,1	22,9	258,7
	<i>Eksport</i>	0,1	22,8	258,7
	<i>Import</i>	-	0,02	-
	Xitoy, Gonkong MMR	-	95,9	252,8
	<i>Eksport</i>	-	-	14,9
	<i>Import</i>	-	95,9	238,0




SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **20,9 %** ulush bilan **28 694,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun tumanida **2,2 %** ulush bilan **3 031,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga ko'paydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-aprel oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 76,4 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, 32 396,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 25 051,2 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 7 345,2 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024-yil yanvar-aprel, ulushi, % da)




Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (71,0 %), Qozog'iston (15,7 %), Turkmaniston (4,9 %) hamda Belarus (2,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.


SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel, ming AQSH dollari)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 29 488,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 23 972,4 ming AQSH dollari, import hajmi esa 5 515,6 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 156 taga yetdi va ular tomonidan 73 052,2 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-aprel, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	59 632,7	73 052,2	76,8	122,5	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	34 470,1	42 229,2	105,3	122,5	57,8	57,8
Ichimliklar va tamaki	561,4	-	133,2 m.	-	0,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2 662,0	2 698,6	82,1	101,4	4,5	3,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	62,2	185,6	88,7	3,0 m.	0,1	0,3
Sanoat tovarlari	20 026,9	23 564,3	49,9	117,7	33,6	32,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	74,9	528,5	6,5 m.	7,1 m.	0,1	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	512,8	1 989,7	3,5 m.	3,9 m.	0,9	2,7
Xizmatlar	1 262,3	1 856,3	131,3	147,1	2,1	2,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (57,8 %), sanoat tovarlari (32,3 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (3,7 %), turli xil tayyor buyumlar (2,7 %) va xizmatlar (2,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-aprel)


XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	38 747,6	126,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 424,1	92,7
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	38,0	3,3 m.
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	10,0	58,4
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	9,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	2 698,6	101,4
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	1 806,3	2,6 m.
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	547,1	78,8
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	249,3	178,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	184,3	3,1 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	1,0	3,3 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	51,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	20,4	7,2 m.
Aniq soxalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	96,3	-
Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashina va uskunalar	411,8	5,7 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	23 198,9	121,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	222,1	41,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	126,6	33,9
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	15,9	5,4 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,4	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	0,2	1,4
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	612,5	147,8
Moliyaviy xizmatlar	425,0	108,0
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	372,6	-
Boshqa biznes xizmatlari	289,2	176,9
Sayohat	156,9	54,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 935,8	7,4 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	29,9	17,6
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	19,7	-
Har xil tayyor mahsulotlar	4,3	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlarga 25 051,2 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning 34,3 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, XXR, Afg'oniston, Turkiya, Belarus va Qozog'iston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,8 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-aprel, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	5 872,3	22 147,2	65,4	3,8 m.	3	1
Pokiston	19 739,8	21 615,0	193,7	109,5	1	2
XXR	16 219,9	12 356,9	58,6	76,2	2	3
Afg'oniston	5 228,3	6 973,8	65,2	133,4	4	4
Turkiya	3 059,1	5 166,3	44,2	168,9	5	5
Belarus	264,2	875,9	34,8	3,3 m.	15	6
Qozog'iston	2 316,0	864,1	28,9	37,3	6	7
Ozarbayjon	467,9	466,3	85,8	99,7	12	8
Tojikiston	1 493,8	455,5	129,7	30,5	7	9
Polsha	503,8	310,7	8,3 m.	61,7	11	10
Latviya	22,8	258,7	426,8 m.	11,3 m.	23	11
Irok	363,1	222,4	154,9	61,2	14	12
Germaniya	222,2	173,9	33,7	78,3	17	13
Eron	1 108,6	162,4	62,3	14,7	8	14
Ukraina	38,3	134,0	22,9	3,5 m.	21	15
Hindiston	949,1	112,1	4,6 m.	11,8	9	16
Qirg'iz Respublikasi	633,4	85,2	57,4	13,5	10	17
AQSh	5,9	80,4	116,5	13,6 m.	26	18
Peru	-	55,4	-	-	-	19
Misir	-	49,7	-	-	-	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)*



2023-y.

2024-y.

Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani 11,8 % bilan 8 593,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun 2,0 % bilan 1 456,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-aprel oylarida 96 507,2 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,7 m. yoki 70 490,5 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (48,0 %), Rossiya (41,0 %), Afg'oniston (5,5 %), Qozog'iston (1,3 %) hamda Belarus (1,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 42 159,7 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 27,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.
















MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-aprel, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum quritilgan</p> <p>174,8 ming AQSH dollari</p> <p>107,6 tonna</p> <p>94,9 % ↓</p>	<p>Karam</p> <p>6 250,9 ming AQSH dollari</p> <p>29 974,8 tonna</p> <p>15,4 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>13 623,3 ming AQSH dollari</p> <p>44 448,4 tonna</p> <p>15,1 m. ↑</p>	<p>Dukkakli donli ekinlar</p> <p>6 973,2 ming AQSH dollari</p> <p>2 138,4 tonna</p> <p>64,7 % ↓</p>
<p>Uzum</p> <p>839,6 ming AQSH dollari</p> <p>1 162,3 tonna</p> <p>8,0 m. ↑</p>	<p>Yer yong'oq</p> <p>1 591,0 ming AQSH dollari</p> <p>684,0 tonna</p> <p>3,8 m. ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>339,3 ming AQSH dollari</p> <p>261,8 tonna</p> <p>2,3 m. ↑</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>2 522,1 ming AQSH dollari</p> <p>1 868,5 tonna</p> <p>51,7 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-aprel)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	37 066,0	20 239,9	48,0
 Rossiya	47 498,0	17 289,8	41,0
 Afg'oniston	8 325,1	2 319,9	5,5
 Qozog'iston	1 410,3	538,5	1,3
 Belarus	718,9	428,7	1,0
 Ozarbayjon	255,7	389,4	0,9
 Latviya	509,3	257,2	0,6
 Germaniya	76,7	173,7	0,4
 Polsha	117,2	151,3	0,4
 Ukraina	193,5	132,1	0,3
 AQSh	13,0	76,4	0,2
 Tojikiston	87,8	65,7	0,2
 Boshqa davlatlar	235,6	97,0	0,2

* qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 48,0 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-aprel oyi yakuni bo'yicha 25 134,4 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 34,4 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 27,3 % ga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (79,2 %), gazlamalar (9,5 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (7,7 %) va gilamlar (0,4 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 12 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ming AQSH dollari)



25 134,4 (2023 z.: 19 740,6)

Jami



19 896,9 (15 706,4)

Ip kalava



2 397,9 (2 519,8)

Gazlamalar



1 935,8 (260,5)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



111,8 (185,3)

Gilamlar

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ming AQSH dollari)

		2023-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati, % da
	XXR	12 101,6	12 356,9	102,1
	Turkiya	2 636,3	4 645,6	176,2
	Rossiya	2 256,0	3 564,6	158,0
	Afg‘oniston	217,1	2 686,8	12,4 m.
	Pokiston	706,1	1 283,7	181,8
	Eron	-	162,4	-
	Polsha	381,4	159,3	41,8
	Ozərbayjon	33,6	73,0	2,2 m.
	Belarus	-	58,0	-
	Peru	-	55,4	-
	Boshqa davlatlar	1 408,6	88,5	6,3




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (49,2 % – 12 356,9 ming AQSH dollari), Turkiya (18,5 % – 4 645,6 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (14,2 % – 3 564,6 ming AQSH dollari) va Afg‘oniston (10,7 % – 2 686,8 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi 1 856,3 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,5 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 47,1 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (33,0 %), moliyaviy (22,9 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (20,1 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (15,6 %) va safarlar (turizm) (8,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 64 153,3 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 148,4 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (66,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,3 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (3,8 %) hamda sanoat tovarlari (3,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 779,3 ming AQSH dollariga ko'paydi va 63 874,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 279,0 ming AQSH dollariga yetdi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	43 229,3	64 153,3	59,5	148,4	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15 007,8	12 379,5	65,0	82,5	34,7	19,3
Ichimliklar va tamaki	-	323,5	-	-	-	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	305,1	687,9	18,3	2,3 m.	0,7	1,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	360,4	1 845,3	189,1	5,1 m.	0,8	2,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	161,1	37,8	-	23,5	0,4	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 303,1	2 455,8	57,2	188,5	3,0	3,8
Sanoat tovarlari	8 981,5	2 199,1	36,8	24,5	20,8	3,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	16 231,1	42 329,3	79,2	2,6 m.	37,6	66,0
Turli xil tayyor buyumlar	744,9	1 616,0	2,1 m.	2,2 m.	1,7	2,5
Xizmatlar	134,2	279,0	117,6	2,1 m.	0,3	0,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	7 757,2	65,5
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 999,2	190,4 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 931,2	67,1
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	288,8	2,6 m.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	217,9	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	117,4	2,1 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	38,2	42,9
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	27,1	117,3
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	343,1	47,0 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	342,2	159,1
Qog'oz massasi	2,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 614,4	4,5 m.
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 619,5	2,2 m.
Organik kimyoviy moddalar	226,1	5,6 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	215,3	106,0
Noorganik kimyoviy moddalar	181,8	118,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	129,9	4,0 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	52,2	118,4
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	13,9	17,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13,8	68,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	3,3	120,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	448,0	184,7 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari blokli binolar, armatura va mahkamlash	446,4	10,5 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	407,9	131,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	55,3	27,8 m.
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	45,1	3,2 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	41,7	57,1
Poyabzal	7,0	29,5 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,3	261,6 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 775,8	76,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	128,5	7,0
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	104,6	2,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	92,6	19,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	34,8	46,1
Rangli metallar	22,8	148,7
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	22,3	9,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,7	56,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	25 213,4	3,7 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12 442,9	5,3 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	2 032,2	2,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 956,2	6,1 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	418,4	7,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	120,6	61,8 m.
Metallni qayta ishlash mashinalari	100,4	34,8
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	45,2	3,8 m.



2024-yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 11,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimiz 34 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Germaniya, XXR, Pokiston, Qozog'iston, Eron va Hindiston) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-aprel, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	4 187,1	25 737,1	117,2	6,1 m.	4	1
Germaniya	1 158,6	11 050,6	173,8	9,5 m.	9	2
XXR	7 542,4	5 360,7	49,8	71,1	2	3
Pokiston	11 362,0	4 842,7	71,4	42,6	1	4
Qozog'iston	4 984,4	4 214,8	93,2	84,6	3	5
Eron	346,5	2 369,4	46,1	6,8 m.	14	6
Hindiston	929,4	2 334,0	84,2	2,5 m.	10	7
Turkmaniston	324,2	1 575,4	92,7	4,9 m.	15	8
Afg'oniston	253,4	1 171,3	83,7	4,6 m.	17	9
Rossiya Federatsiyasi	2 282,3	844,3	10,6	37,0	7	10
Ekvador	25,8	841,1	6,0	32,6 m.	28	11
Avstriya	-	577,1	-	-	-	12
Qirg'iz Respublikasi	23,9	456,5	3,6	19,1 m.	29	13
Polsha	170,3	413,1	198,3	2,4 m.	19	14
Chexiya	185,7	400,0	69,4	2,2 m.	18	15
Tojikiston	2 844,9	254,2	125,9	8,9	5	16
Daniya	-	252,6	-	-	-	17
Shveysariya	119,4	249,9	16,4 m.	2,1 m.	21	18
Xitoy, Gonkong MMR	95,9	238,0	-	2,5 m.	22	19
Ispaniya	540,3	208,8	3726,4 m.	38,6	12	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024-yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 31,3 % bilan 20 100,9 ming AQSH dollarini, eng quyi, Qiziriq 2,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 2 199,1 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,5 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 3,4 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-aprel)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (1 775,8 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (128,5 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (104,6 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (92,6 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (34,8 ming AQSH dollari), rangli metallar (22,8 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (22,3 ming AQSH dollari) va probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (17,7 ming AQSH dollari) tashkil topgan.